

KASBIY TA'LIM MUASSASALARI O'QUVCHILARIDA KASBIY SIFATLARNI RIVOJLANTIRISHNING PEDAGOGIK JIHATLARI

ПЕДАГОГИЧЕСКИЕ АСПЕКТЫ РАЗВИТИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНЫХ КАЧЕСТВ УЧАЩИХСЯ УЧРЕЖДЕНИЙ ПРОФЕССИОНАЛЬНОГО ОБРАЗОВАНИЯ

PEDAGOGICAL ASPECTS OF DEVELOPING PROFESSIONAL QUALITIES IN STUDENTS OF VOCATIONAL EDUCATION INSTITUTIONS

SALAMOV ABDURASUL AXMADOVICH

Jizzax davlat pedagogika universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. Mazkur maqolada kasbiy ta'lim muassasalari o'quvchilarida kasbiy sifatlarni rivojlantirishning pedagogik jihatlari tahlil qilingan. Zamonaviy mehnat bozori sharoitida mutaxassisning nafaqat kasbiy bilimga, balki mas'uliyatlilik, tashabbuskorlik, kommunikativlik va mustaqil fikrlash kabi sifatlariga ehtiyoj ortib borayotgani ilmiy asoslangan. Shuningdek, kasbiy sifatlarni shakllantirish jarayonida uchrayotgan muammolar hamda ularni bartaraf etishga xizmat qiluvchi pedagogik yondashuvlar yoritilgan. Maqolada innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida o'quvchilarning kasbiy sifatlarini rivojlantirishning samarali yo'llari ko'rsatib berilgan.

Kalit so'zlar: kasbiy sifat, kasbiy ta'lim, pedagogik yondashuv, kasbiy tayyorgarlik, motivatsiya, innovatsion texnologiyalar, mustaqil fikrlash.

Аннотация. В данной статье анализируются педагогические аспекты развития профессиональных качеств учащихся учреждений профессионального образования. Научно обосновано, что в условиях современного рынка труда возрастает потребность в таких качествах специалиста, как ответственность, инициативность, коммуникабельность и независимое мышление, помимо его профессиональных знаний. Также освещаются проблемы, возникающие в процессе формирования профессиональных качеств, и педагогические подходы, способствующие их устранению. В статье показаны эффективные пути развития профессиональных качеств учащихся на основе инновационных педагогических технологий.

Ключевые слова: профессиональное качество, профессиональное образование, педагогический подход, профессиональная подготовка, мотивация, инновационные технологии, независимое мышление.

ABSTRACT. This article analyzes the pedagogical aspects of developing professional qualities in students of vocational education institutions. It is scientifically substantiated that in the conditions of the modern labor market, the demand for a specialist's qualities such as responsibility, initiative, communicativeness, and independent thinking, in addition to professional knowledge, is increasing. Furthermore, the problems encountered in the process of forming professional qualities and pedagogical approaches serving to eliminate them are highlighted. The article demonstrates effective ways of developing students' professional qualities based on innovative pedagogical technologies.

Keywords: professional quality, vocational education, pedagogical approach, vocational training, motivation, innovative technologies, independent thinking.

Jamiyat taraqqiyotining zamonaviy bosqichida iqtisodiy va texnologik jarayonlarning jadallashuvi mutaxassis tayyorlash tizimiga yangi talablarni yuzaga keltirmoqda. Ayniqsa, ishlab chiqarishning raqamlashtirilishi, mehnat bozoridagi raqobatning kuchayishi hamda xizmat ko'rsatish sohasining kengayishi professional ta'lim tizimidan sifat jihatdan yangi yondashuvlarni talab etmoqda. Endilikda ish beruvchilar tomonidan faqat nazariy bilimga ega bo'lgan mutaxassis emas, balki kasbiy faoliyatni samarali tashkil eta oladigan, muammoli vaziyatlarda mustaqil qaror qabul qiladigan hamda kasbiy muhitga tez moslasha oladigan kadrlar talab qilinmoqda.

Mazkur talablar kasbiy ta'lim muassasalarida o'quvchilarning kasbiy sifatlarini rivojlantirish masalasining dolzarbligini oshirmoqda. Chunki kasbiy sifatlar mutaxassisning kasbiy faoliyatdagi samaradorligini belgilovchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Pedagogik manbalarda kasbiy sifatlar shaxsning kasbiy faoliyatga munosabatini va kasbiy vazifalarni bajarishdagi individual imkoniyatlarini ifodalovchi sifatlar majmui sifatida talqin qilinadi.

Biroq kasbiy ta'lim amaliyoti tahlillari shuni ko'rsatadiki, o'quvchilarda kasbiy sifatlarini shakllantirish jarayoni ko'proq nazariy tayyorgarlik bilan cheklanib qolmoqda. Natijada bitiruvchilarning kasbiy moslashuvchanligi, mustaqil faoliyat yuritish ko'nikmalari hamda amaliy muammolarni hal etish kompetensiyalari yetarli darajada rivojlanmayapti. Mazkur holat kasbiy ta'lim tizimida kasbiy sifatlarini rivojlantirishning pedagogik mexanizmlarini takomillashtirish zaruratini yuzaga keltirmoqda.

Mazkur maqolaning maqsadi kasbiy ta'lim muassasalarida o'quvchilarida kasbiy sifatlarini rivojlantirishning pedagogik jihatlarini tahlil qilish hamda ularni samarali shakllantirishga xizmat qiluvchi pedagogik yondashuvlarni ilmiy asoslashdan iborat.

N.A.Muslimov kasbiy ta'lim samaradorligi o'quvchilarda kasbiy faoliyatga oid sifatlarining shakllanganlik darajasi bilan bog'liqligini ta'kidlaydi [3]. O'.Tolipov va M.Usmonboyevalarning fikricha, zamonaviy pedagogik texnologiyalar o'quvchilarda mustaqil fikrlash va kasbiy faollikni rivojlantirishga xizmat qiladi [4]. E.F.Zeer esa professional ta'limning asosiy vazifasi shaxsning kasbiy moslashuvchanligini shakllantirishdan iborat ekanligini qayd etadi [6].

Biroq amaliyot tahlillari shuni ko'rsatadiki, ayrim kasbiy ta'lim muassasalarida o'quvchilarning kasbiy sifatlarini rivojlantirish jarayoni ko'proq nazariy tayyorgarlik bilan cheklanib qolmoqda. Bu esa bitiruvchilarning ishlab chiqarish sharoitiga moslashuvida muayyan qiyinchiliklarni yuzaga keltirmoqda.

Kasbiy sifatlarini rivojlantirish zarurati zamonaviy mehnat bozori va ishlab chiqarish tizimidagi tarkibiy o'zgarishlar bilan izohlanadi. Chunki bugungi iqtisodiy sharoitda mutaxassisning kasbiy muvaffaqiyati nafaqat uning nazariy tayyorgarligi, balki amaliy faoliyatga tayyorligi, kommunikativligi, mas'uliyatliliigi va kasbiy moslashuvchanligi bilan ham belgilanmoqda.

Xususan, xalqaro tadqiqotlar natijalariga ko'ra, ish beruvchilar tomonidan baholanadigan asosiy mezonlarning muhim qismi shaxsiy va kasbiy sifatlariga bog'liq ekanligi aniqlangan [7]. Bu holat professional ta'lim mazmunida ham o'z aksini topishi zarurligini ko'rsatadi.

Kasbiy sifatlar o'quvchining:

- kasbiy faoliyatga munosabatini;
- jamoada ishlash qobiliyatini;
- mas'uliyat hissini;
- muammoli vaziyatlarda qaror qabul qilish ko'nikmalarini;
- kasbiy muloqot madaniyatini belgilab beradi.

Shu sababli kasbiy ta'lim jarayonida

faqat bilim berish emas, balki o'quvchining shaxsiy va kasbiy sifatlarini rivojlantirish ham muhim pedagogik vazifa hisoblanadi.

Kasbiy ta'lim amaliyotida o'quvchilarning kasbiy sifatlarini rivojlantirishga salbiy ta'sir ko'rsatayotgan bir qator omillar mavjud.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, ayrim kasbiy ta'lim muassasalarida o'quv jarayonining mazmuni asosan nazariy tayyorgarlikka yo'naltirilgan bo'lib, bu o'quvchilarning amaliy faoliyatga tayyorlik darajasiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda.

Shuningdek, innovatsion pedagogik texnologiyalarning yetarli darajada qo'llanilmasligi o'quvchilarda mustaqil fikrlash, tashabbuskorlik va kreativ yondashuv kabi kasbiy sifatlarining to'laqonli rivojlanishiga to'sqinlik qilmoqda.

Pedagogik kuzatuvlar ayrim o'quvchilarda tanlangan kasbga nisbatan barqaror qiziqish va ichki ehtiyoj yetarli shakllanmaganligini ko'rsatmoqda. Bu esa o'quvchilarning ta'lim jarayonidagi faolligi hamda kasbiy rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Shuningdek, ishlab chiqarish bilan integratsiyaning yetarli emasligi ham kasbiy sifatlarini rivojlantirish samaradorligiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Chunki real kasbiy muhit bilan muntazam aloqaning mavjud emasligi o'quvchilarning kasbiy moslashuvchanligini pasaytiradi.

Kasbiy sifatlarini rivojlantirishda pedagogik jarayonni zamonaviy yondashuvlar asosida tashkil etish muhim ahamiyatga ega. Chunki pedagogik faoliyatning mazmuni va metodlari o'quvchilarning kasbiy shakllanishiga bevosita ta'sir ko'rsatadi.

Pedagogik adabiyotlarda shaxsga yo'naltirilgan ta'lim o'quvchilarning individual imkoniyatlarini rivojlantirishga xizmat qiluvchi samarali yondashuv sifatida e'tirof etiladi [5]. Mazkur yondashuv asosida o'quvchilarning mustaqil fikrlashi, tashabbuskorligi va kasbiy faolligini

rivojlantirish imkoniyati kengayadi.

Kasbiy sifatlarini rivojlantirishda motivatsion muhitning o'rni ham muhimdir. O'quvchilarda kasbga nisbatan ijobiy munosabatni shakllantirish uchun:

- amaliy seminarlar;
- kasbiy uchrashuvlar;
- ishlab chiqarish ekskursiyalari;
- mahorat tanlovlari kabi faoliyatlarni

tashkil etish samarali hisoblanadi.

Yuqorida qayd etilgan muammolar kasbiy ta'lim tizimida o'quvchilarning kasbiy sifatlarini rivojlantirish jarayonini pedagogik jihatdan takomillashtirish zarurligini ko'rsatadi. Shu nuqtai nazardan ta'lim jarayoniga zamonaviy pedagogik yondashuvlarni joriy etish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bunday pedagogik faoliyat o'quvchilarda kasbiy mas'uliyat va o'z kasbga nisbatan qiziqishni kuchaytiradi.

Kasbiy sifatlarini samarali rivojlantirish pedagogik jarayonni shaxsga yo'naltirilgan hamda amaliy faoliyat bilan integratsiyalashgan yondashuv asosida tashkil etishni talab etadi. Chunki mazkur texnologiyalar o'quvchilarning faolligini oshirish bilan birga, ularni mustaqil va ijodiy fikrlashga yo'naltiradi.

Xususan, case-study texnologiyasi o'quvchilarda muammoli vaziyatlarni tahlil qilish va amaliy yechim topish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Loyiha metodi esa o'quvchilarning tashabbuskorligi va jamoaviy faoliyatini shakllantirishga xizmat qiladi.

Muammoli ta'lim texnologiyasi asosida tashkil etilgan mashg'ulotlar o'quvchilarning:

- mustaqil qaror qabul qilish;
- fikrni asoslash;
- kasbiy vaziyatlarni tahlil qilish

ko'nikmalarini rivojlantiradi.

Shuningdek, raqamli texnologiyalar va simulyatsion vositalardan foydalanish o'quvchilarning real kasbiy muhitga moslashuvchanligini oshiradi.

Maqolaning ilmiy yangiligi kasbiy ta'lim muassasalari o'quvchilarida kasbiy sifatlarni rivojlantirishga ta'sir etuvchi pedagogik omillarning tizimli tahlil qilinganligi hamda innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida ularni rivojlantirishning samarali yondashuvlari asoslab berilganligi bilan izohlanadi.

Xulosa qilib aytganda, kasbiy ta'lim muassasalarida o'quvchilarning kasbiy sifatlarni rivojlantirish zamonaviy professional ta'lim tizimining ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Chunki bugungi mehnat bozori sharoitida mutaxassisning kasbiy muvaffaqiyati uning nafaqat bilim darajasi, balki kommunikativligi, mas'uliyatligi, tashabbuskorligi va mustaqil fikrlash ko'nikmalari bilan belgilanmoqda.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, kasbiy sifatlarni rivojlantirish samaradorligi pedagogik jarayonning amaliy yo'naltirilganligi, motivatsion muhitning shakllanganligi hamda innovatsion pedagogik texnologiyalarning qo'llanilishi bilan chambarchas bog'liq. Ayniqsa, muammoli ta'lim, case-study va loyiha metodlari o'quvchilarning kasbiy faolligi hamda mustaqil qaror qabul qilish ko'nikmalarini rivojlantirishda muhim pedagogik vosita sifatida namoyon bo'ladi.

Muallifning fikricha, kasbiy sifatlarni rivojlantirish jarayoni faqat nazariy tayyorgarlik bilan cheklanmasdan, ishlab chiqarish integratsiyasi, shaxsga yo'naltirilgan pedagogik yondashuv va motivatsion mexanizmlar asosida tashkil etilgandagina samarali natija beradi.

Shubois kasbiy ta'lim tizimida innovatsion pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish, amaliy mashg'ulotlar samaradorligini oshirish hamda o'quvchilarning kasbiy motivatsiyasini qo'llab-quvvatlash muhim pedagogik vazifalardan biri bo'lib qoladi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, kasbiy sifatlarni rivojlantirish samaradorligi pedagogik jarayonning mazmuni, motivatsion muhit va innovatsion pedagogik texnologiyalarning qo'llanish darajasi bilan chambarchas bog'liq.

Shu bois kasbiy ta'lim tizimida:

- amaliy yo'naltirilgan ta'limni kuchaytirish;
- innovatsion pedagogik texnologiyalarni keng joriy etish;
- ishlab chiqarish bilan integratsiyani rivojlantirish;
- o'quvchilarning kasbiy motivatsiyasini qo'llab-quvvatlash muhim pedagogik vazifalardan biri bo'lib qoladi.



Foydalanilgan adabiyotlar :



1. O'zbekiston Respublikasining "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – Toshkent, 2020.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi PF–60-son Farmoni // Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi. – Toshkent, 2022.
3. Muslimov N.A. Kasb ta'limi pedagogikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 2019. – 356 b.
4. Tolipov O., Usmonboyeva M. Pedagogik texnologiyalarning tatbiqiy asoslari. – Toshkent: Fan, 2017. – 224 b.
5. Ishmuhamedov R.J. Innovatsion ta'lim texnologiyalari. – Toshkent: Fan va texnologiya, 2021. – 318 b.
6. Zeer E.F. Kompetentnostniy podxod v professionalnom obrazovanii. – Moskva: Akademiya, 2018. – 288 s.
7. UNESCO. Transforming Technical and Vocational Education and Training for Successful and Just Transitions. – Paris: UNESCO Publishing, 2022.